

Yozma ishlarni tekshirish uchun mutaxassislarni jalb qilish to'g'risida e'lon

Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi 2026/2027-o'quv yilida Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarga o'qishga qabul qilish bo'yicha kirish imtihonlaridagi yozma ishlarni tekshirish uchun shartnoma asosida malakali mutaxassislarni jalb qilish bo'yicha tanlov e'lon qiladi.

Mazkur tanlov yozma imtihon ishlarini belgilangan baholash mezonlari asosida xolis, shaffof va sifatli baholashni ta'minlash hamda ushbu jarayonga yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish maqsadida o'tkaziladi.

Saralash natijalariga ko'ra tanlab olingan mutaxassislar bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuziladi va ular yozma imtihon ishlarini baholash jarayoniga belgilangan muddatlarda jalb etiladi.

Faoliyat muddati: 2 hafta

Format: qisman bandlik, oflayn format (Toshkent shahri).

Ochiq vakansiyalar:

Matematika, fizika, kimyo va biologiya fanlari bo'yicha yozma imtihon ishlarini tekshiruvchi mutaxassislar.

Asosiy vazifalar:

- yozma imtihon ishlarini tasdiqlangan baholash mezonlari asosida tekshirish;
- baholash natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;
- baholash jarayonining xolisligi, maxfiyligi va shaffofligini ta'minlash;
- baholash jarayonini tartibga soluvchi normativ va metodik hujjatlar talablariga rioya qilish.

Talablar:

- tegishli yo'nalish bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lish;
- tegishli mutaxassislik bo'yicha kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lish;
- yozma ishlarni tekshirish, baholash, kirish imtihonlari jarayonlarida kamida 3 yillik tajribaga ega bo'lish;
- oxirgi 5 yil davomida tegishli fan bo'yicha pedagogik faoliyat olib borgan bo'lish;
- Toshkent shahrida tashkil etiladigan baholash jarayonida to'liq ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lish.

To'lov shartlari

Bajarilgan ishlar uchun haq fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida amaldagi qonunchilikka muvofiq to'lanadi.

Arizalarni topshirish tartibi:

Qiziqish bildirgan nomzodlardan obyektivka (CV) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasini pmm@piima.uz elektron pochta manziliga yuborish so'raladi.

Xat mavzusida: "Yozma imtihon ishlarini tekshiruvchi mutaxassis" deb ko'rsatish so'raladi.

Объявление о привлечении специалистов для проверки письменных работ

Научно-практический центр педагогического мастерства и международного оценивания объявляет конкурс по привлечению на договорной основе квалифицированных специалистов для проверки письменных работ вступительных экзаменов по приёму в школы, входящие в систему Агентства специализированных образовательных учреждений, на 2026/2027 учебный год.

Настоящий конкурс проводится в целях обеспечения объективной, прозрачной и качественной оценки письменных экзаменационных работ в соответствии с утвержденными критериями оценивания, а также привлечения к данному процессу высококвалифицированных специалистов.

По результатам конкурсного отбора с отобранными специалистами будет заключен гражданско-правовой договор, после чего они будут привлечены к процессу оценки письменных экзаменационных работ в установленные сроки.

Период выполнения работ: 2 недели.

Формат: частичная занятость, очный формат (г. Ташкент).

Открытые вакансии:

Специалисты по проверке письменных экзаменационных работ по следующим предметам:

- математика;
- физика;
- химия;
- биология.

Основные обязанности

- проверка письменных экзаменационных работ в соответствии с утвержденными критериями оценивания;
- оформление результатов оценивания в установленном порядке;
- обеспечение объективности, конфиденциальности и прозрачности процесса оценивания;
- соблюдение требований нормативных и методических документов, регулирующих процесс оценивания.

Требования

- наличие высшего образования по соответствующему направлению;
- стаж педагогической работы по соответствующей специальности не менее 3 лет;
- опыт участия в проверке письменных работ, оценивании, аттестации или проведении вступительных экзаменов не менее 3 года;
- осуществление педагогической деятельности по соответствующему предмету в течение последних 5 лет;
- возможность полного участия в процессе оценивания, организуемом в городе Ташкенте.

Условия оплаты

Оплата выполненных работ осуществляется на основании гражданско-правового договора в соответствии с действующим законодательством.

Порядок подачи заявок

Заинтересованным кандидатам необходимо направить резюме (CV), а также копию диплома о высшем образовании на электронный адрес [**pmm@piima.uz**](mailto:pmm@piima.uz).

В теме письма необходимо указать: «Специалист по проверке письменных экзаменационных работ».